



PROVISION OF PRIVILEGED SERVICES THROUGH THE “SOCIAL CARD” SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN

Bekzod Tolibov

*Head of the Department of Social Work, PhD in Sociology
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan
E-mail: bekzod-tolibov@mail.ru*

Gulsinoy Nuralimova

*Master's student in Social Work
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan
E-mail: nurolimovnns@gmail.com*

ABOUT ARTICLE

Key words: social card, digital technology, social protection, preferential services, Uzbekistan's experience, international experience, social justice.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: The article discusses the content of the social card system, the preferential services provided to the population, and the implementation of this system in Uzbekistan. It also analyzes the practical significance of the social card, existing problems, and ways to improve it based on international experience. The role of the system in ensuring social justice and equality is examined through the theories of Max Weber and Amartya Sen.

YANGI O'ZBEKİSTONDA “İJTİMOİY KARTA”LAR TİZİMİ ORQALI İMTİYOZLI XİZMATLAR KO'RSATISH

Bekzod Tolibov

*Ijtimoiy ish kafedrasi mudiri, Sosiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD
Farg'on'a davlat universiteti
Farg'on'a, O'zbekiston
E-mail: bekzod-tolibov@mail.ru*

Gulsinoy Nuralimova

*Magistratura talabasi
Farg'on'a davlat universiteti
Farg'on'a, O'zbekiston
E-mail: nurolimovnns@gmail.com*

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ijtimoiy karta, raqamli texnologiya, ijtimoiy himoya, imtiyozli xizmatlar, O‘zbekiston tajribasi, xalqaro tajriba, ijtimoiy adolat.

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy kartalar tizimining mazmuni, aholiga ko‘rsatilayotgan imtiyozli xizmatlar hamda bu tizimning O‘zbekistonda joriy etilishi yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy kartaning amaliy ahamiyati, mavjud muammolari, xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Tizimning ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashdagi o‘rni Max Weber va Amartya Sen nazariyalari asosida yondashilgan.

ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ ЛЬГОТНЫХ УСЛУГ ЧЕРЕЗ СИСТЕМУ «СОЦИАЛЬНАЯ КАРТА» В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Бекзод Толибов

Заведующий кафедрой социальной работы, Кандидат философских наук по социологии (PhD)

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

E-mail: bekzod-tolibov@mail.ru

Гулсиной Нуралимова

Магистрант по специальности «Социальная работа»

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

E-mail: nurolimovnns@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная карта, цифровые технологии, социальная защита, льготные услуги, опыт Узбекистана, международный опыт, социальная справедливость.

Аннотация: В статье раскрывается содержание системы социальных карт, льготные услуги, предоставляемые населению, а также внедрение этой системы в Узбекистане. Рассматриваются практическое значение социальной карты, существующие проблемы и пути её совершенствования на основе международного опыта. Роль системы в обеспечении социальной справедливости и равенства анализируется с точки зрения теорий Макса Вебера и Амартии Сена.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatlarini aholiga tezkor, shaffof va qulay tarzda yetkazib berish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Shu yo‘nalishda joriy etilayotgan muhim innovatsion yechimlardan biri — ijtimoiy kartalar tizimi bo‘lib, u fuqarolarga bir qator imtiyozli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Ijtimoiy kartalar yordamida nafaqat shaxsiy ma’lumotlar markazlashtirilgan tarzda boshqariladi, balki aholi qatlamlariga yo‘naltirilgan turli ijtimoiy yengilliklar, subsidiyalar va xizmatlar ham birlashtirilgan

shaklda taqdim etiladi. Mazkur maqolada ijtimoiy kartalar orqali aholiga ko‘rsatilayotgan imtiyozli xizmatlarning turlari, ularning amaliy ahamiyati, tizimni joriy etishdagi muammolar hamda bu sohadagi takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston tajribasida ushbu tizimning rivojlanish istiqbollari va uni xalqaro tajriba bilan taqqoslab o‘rganish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga jadal sur’atlar bilan kirib bormoqda. Shu jumladan, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko‘maklashish va ularga qulayliklar yaratish yo‘lida “ijtimoiy karta” loyihasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim orqali fuqarolarga qator imtiyozli xizmatlar va imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldaggi PQ-267-son qaroriga asosan 2024-yil 1-dekabrdan boshlab aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralar bosqichma-bosqich “Ijtimoiy karta” axborot tizimidan (keyingi o‘rinlarda — “Ijtimoiy karta” AT) foydalangan holda ijtimoiy karta orqali taqdim etilishi belgilandi.

Avvalo, ijtimoiy karta — bu aholining ma’lum toifalariga, xususan, kam ta’minlangan oilalar, pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ko‘p farzandli onalar va boshqa ehtiyojmand qatlamlarga taalluqli bo‘lgan shaxsiy elektron kartadir. Mazkur karta orqali fuqarolar turli xizmatlardan bepul yoki chegirmali narxlarda foydalanish huquqiga ega bo‘ladilar Ijtimoiy karta 2024-yilning dekabr oyidan boshlab yangi tayinlangan 9 turdagи ijtimoiy to‘lovlar oluvchi shaxslarga taqdim etilmoqda. Hozirda u tajriba sifatida Toshkent shahri va Yangiyo‘l tumanida joriy etildi. Ijtimoiy karta tajriba sinov sifatida qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy to‘lovlar oluvchi shaxslarga hozirgi kunda ijtimoiy kartalar bepul berilmoqda. Ijtimoiy to‘lovlar oluvchi shaxslarga ijtimoiy kartalar bepul beriladi:

2024-yil 1-dekabrdan boshlab quyidagi to‘lovlar ijtimoiy karta orqali to‘lab berilmoqda:

1. Kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi;
2. Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam;
3. Yoshga doir nafaqa;
4. Nogironlik nafaqasi;
5. Yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun har oylik moddiy yordam;
6. Nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarga nogironlik nafaqalari;
7. Nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarishlayotgan onalar uchun nafaqa;
8. Protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari xaridi uchun vaucher;
9. Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi.

Bundan tashqari, ijtimoiy kartalar orqali aholining moliyaviy va ijtimoiy holati monitoring qilinadi, bu esa davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordamlarni yanada aniq va samarali yo'naltirish imkonini beradi. Shuningdek, bu tizim byurokratik to'siqlarni kamaytirib, aholining davlat xizmatlariga murojaat qilish jarayonini soddalashtiradi.

Ijtimoiy karta quyidagi toifadagi shaxslarga bepul beriladi:

1. Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar (shaxslar);
2. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalar;
3. Ko'p bolali oilalarning a'zolari;
4. Nogironligi bo'lgan shaxslar;
5. O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar bo'lgan yolg'iz yashovchi va yolg'iz keksalar;
6. O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslar parvarishi bilan band bo'lgan shaxslar;
7. Yetim bolalar va ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;
8. Vasiylar (homiyalar), tutingan ota-onalar;
9. Muomalaga layoqatsiz shaxslar;
10. Muomala layoqati cheklangan shaxslar;
11. Muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslarning qonuniy vakillari;
12. Pensionerlar;
13. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan stipendiya to'lanayotgan talabalar;
14. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan stipendiya to'lanayotgan o'quvchilar (tinglovchilar);
15. Shahar yo'lovchi transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga.

Jamiyatimizning qo'llab-quvvatlanishga muhtoj qatlamlariga "Ijtimoiy karta" kabi innovatsion yondashuvlari juda muhim hisoblanadi. Ularni yordam berishni faqatgina iqtisodiy tomonga emas boshqa tomonlariga qaratilishi ayniqsa samari yo'l hisoblanadi. Bu haqda Amartya Sen insonlarning hayot sifati va imkoniyatlariga e'tibor qaratgan. Faqat daromad emas, balki sog'liq, ta'lim, ishtirok, huquqiy imkoniyatlar muhim. Darhaqiqat inson ehtiyojligi nafaqat iqtisodiy balki, uning boshqa tomonlarga ehtiyoji bilan ham belgiladi. Ijtimoiy kartada nafaqat daromad, balki salomatlik, ta'lim va boshqa omillarni hisobga olish muhim. Max Veber – Ijtimoiy tabaqalanish nazariyasi. Veber sinf (class), status (maqom) va partiya (siyosiy kuch) orqali jamiyatdagi tabaqalanishni tushuntirgan. Ijtimoiy karta yordamida jamiyatdagi bu farqlarni o'lchash va baholash mumkin. Aholining ijtimoiy maqomi va daromad asosida turli sinflarga ajratish metodikasi ijtimoiy karta muhim hisoblanadi.

"Ijtimoiy karta" (yoki "ijtimoiy himoya kartasi") g'oyasi ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan bo'lib, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat xizmatlaridan samarali foydalanish va aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniq aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Quyida rivojlangan davlatlar tajribasida ijtimoiy kartalar qanday ishlatilishi haqida ma'lumot keltiraman:

Shvetsiya tajribasi: Shaxsiy raqamlar va integratsiyalashgan tizimga asoslangan bo'lib, Har bir fuqaro personnummer deb ataladigan shaxsiy identifikatsiya raqamiga ega. Bu raqam orqali sog'liqni saqlash, soliq, ta'lim, pensiya va boshqa xizmatlar raqamli tarzda boshqariladi. Barcha xizmatlar yagona platforma orqali muvofiqlashtiriladi, korrupsiya xavfi kamayadi.

Singapur tajribasi: fuqarolar Smart Nation va SingPass deb ataluvchi kartaga ega bo'ladilar. Sing Pass orqali har bir fuqaro davlat xizmatlariga yagona raqamli kirish oladi. Turli sohalardagi ijtimoiy yordamlar (uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash) yagona tizim orqali boshqariladi. Davlat organlari avtomatik ravishda ehtiyojmand aholini aniqlab, yordam ko'rsatadi. Singapur tajribasi ham fuqarolarga ancha qulaylik keltiradi. Shaffoflik, korrupsiya va ovoragarchilikni oldini olishda samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy kartalar tizimi zamонавиу raqamli texnologiyalar asosida aholiga davlat tomonidan ko'rsatiladigan imtiyozli xizmatlarni samarali, shaffof va nishonli tarzda yetkazish vositasidir. O'zbekiston tajribasida ushbu tizimning joriy etilishi aholining ehtiyojmand qatlamlariga yordam ko'rsatishda muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, tizimni to'liq va samarali ishlatish uchun axborot infratuzilmasini rivojlantirish, ma'lumotlar bazasini integratsiyalash va foydalanuvchilar uchun qulayliklarni oshirish lozim. Xalqaro tajriba, xususan Shvetsiya va Singapur kabi mamlakatlarning amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kartalar ijtimoiy adolatni ta'minlash, resurslarni to'g'ri taqsimlash va aholining hayot sifatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Shu sababli, O'zbekistonda ham ushbu tizimni bosqichma-bosqich kengaytirish va takomillashtirish zarur.

REFERENCES/СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023.05.01
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, “Ahолига сифатли ижтимоий хизмат ва юрдам ко'рсатиш hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi 01.06.2023yildagi PF-82-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.12.2024-yildagi 897-son Qarori
4. <https://lex.uz/uz/docs/-7283178>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/17/ijtimoiy-karta/>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/17/ijtimoiy-karta/>
7. <https://www.researchgate.net/publication/27466009 Amartya Sen's Development as Freedom>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Three-component_theory_of_stratification?utm_source=chatgpt.com
9. Swedish Tax Agency (Skatteverket): <https://www.skatteverket.se>
10. Smart Nation Singapore rasmiy sayti: <https://www.smartnation.gov.sg>